



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**5110800-TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI  
TA'LIM YO'NALISHI**

## **RANGTASVIR**

### **FANIDAN**

#### **(2-kurs talabalari uchun)**

# **O'QUV - USLUBIY MAJMUA**

*Muallif: U.Sh.Ismatov*

**CHIRCHIQ-2019**

**RANGTASVIR MAJMUA 2-KURS**

### III. AMALIY MASHG`ULOT MATERIALLARI

#### I-Semestr

##### 1–Mavzu: Ma'lum ranglar gammasida (kolorit) naqshli gips rozetka bilan qo'yilgan natyurmortni ishlash

**Mashg'ulot turi:** Naturadan rasm ishlash.

**Tasvirlash vositalari:** Akvarel bo'yog'i, №8–№14 o'lchamdagি mo'yqalamlar, torshon qog'ozi, planshet, bo'yoq uchun palitra, suv uchun idish.

#### Reja:

1. Natyurmortda ranglar uyg'unligi.
2. Amaliy ish va uni bajarish bosqichlari:
  - 2.1. Kerakli tasvirlash vositalarini tanlash. Kompozitsiyani qog'oz yuzasida joylashtirishni o'rghanish.
  - 2.2. Ishni bir xil rangda boshlash. Tus jihatlarini aniqlash.
  - 2.3. Soya yorug' jihatlarini, rang berish usullarini o'rghanish.
  - 2.4. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash
  - 2.5. Asl nusxaga o'xshashligini ta'minlash, umumlashtirish, yakunlash.

**Izoh:** tasvir vatmanning yarmida bajariladi. A–2 format.

**Tayanch iboralar:** *Akvarel, qog'oz, vatman, blik, yorqinlik, rang–tus, xromatik rang, axromatik rang, natyurmort.*

#### Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Qurish, joylashtirish	Shakl, hajm nisbatlarini to'g'ri topish	Soya–yorug' munosabalar ini to'g'ri topish	Tus nisbatlarini topish	Umumlashtir ish, yaxlitlash, yakunlash ishlari	Jami
1	1	1	1	1	5

Natyurmort ishlash jarayonida buyumlarning umumiy tus va rang holatini yaxshi bilishi kerak. Bunday holatni saqlab qolish uchun balki ranglar munosabatini chegaralangan bo'yoqlarda ma'lum ranglar gammasida tasvirlashga to'g'ri keladi. Ishni eng och, to'q va yorqin tuslardan boshlaganda politradagi barcha ranglardan, shu bilan birga eng yorqin va keskin bo'yoqlardan foydalanish shart emas. Yorug'-soya va rang munosabatlarini aniqlashda umumiyyadan hususiyga qarab borish lozim. Avvalo asosiy obyekt oralig'idagi tus farqlarini topish muhim: natyurmortda, masalan, stol yuzasi va fon oralig'idagi ko'za, gips rozetka va ko'zaga tushayotgan yorug'lik va boshqalar. Inson qomati tasviri yoki portret ham xuddi shu tariqa bajariladi. Rassomlarning amaliy tajribasida shunday jumlalar mavjud: —katta yorug'lik, —katta soya, —katta shakl, —katta ranglar munosabati. Bulardan maqsad natura obyektini yaxlit ko'rish va ularni barqaror qilib tasvirlashdir. Naturani yaxlit idrok etganda, yorug'lik tikka ta'sir etayotgan joydagi narsalar yagona bir qismni tashkil etadi va undagi dog'lar kuchliligi bo'yicha soya qismdagiga teng kela olmaydi. Xuddi shularni shaxsiy va tushayotgan soyalarga moslash mumkin: ular tus bo'yicha yarimsoya bilan yaxshi chiqishadi, yarimsoya esa tasvirning yorug'lik qismlaridagi kuchga teng kela olmaydi. Soyadagi refleks yarimsoyadan och bo'la olmaydi, ammo shaxsiy soyaning umumiy tusiga bo'ysunadi. Obyektdagi ushbu katta shakllar yoki buyumlar guruhi tusi va rangining to'g'ri saqlanishi tasvirga yaxlitlik va yoritilishining to'g'ri bo'lishiga turtki bo'ladi. Umumiy ranglar munosabati va navbatdagi ishning davomi naturaga hos koloritni hisobga olgan holda borishi kerak. Naturadan kam ishlagan, tajribasiz rassomlar u yoki bu natyurmort ranglavha etyudini, manzarani yoki portretni tasvirlayotganda har doim ham undagi yaxlitlik va bo'yoqlar birligini muvaffaqiyatli bajara olishmaydi. Naturadan ishlash jarayonida har bir aniq holatda koloritni tushunib yetish, tusli va rangli holat xususiyatini ko'rsata bilishlari zarur. Hamma gap natura bo'yoqlaridagi umumiy tus, rang holati va kolorit birligini ko'rish va tushunib yetishdadir. Yirik plandagi tus munosabatlarini aniqlab olgandan so'ng, yorug'-soya qismlarini modellashtirishga ya'ni, har bir buyumning yorug'-

soyasi, yarim soya, shaxsiy hamda tushayotgan soyalarini topgan holda xajmli shaklini rang-barang qilib tasvirlashga o'tish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, buyumlarning ustki qismi ham rang-tusi bo'yicha, ham yorug'ligi bo'yicha, ham to'yinganligi bo'yicha ham tushayotgan yorug'lik nurining oraliq masofasiga, sinadi, burchagiga hamda atrofida o'rab turgan buyumlarning reflekslariga va kontrast munosabatlariga bog'liq holda o'zgaradi. Yorug'likka,



yarim soyaga yoki soyaga yonma-yon turgan qandaydir ikkita yuza jismlaridagi narsalarda bir xil yoritilish sharoiti mavjud emas. Buyumni barcha qismini palitrada topilgan rang bilan unga och yoki to'q rangni qo'shib ishlash mumkin emas. Buyumning har bir bo'lagi uchun yangi va yana yangi bo'yoq qorishmalarini topish kerak. Odatda lokal (buyum) rangi yarim soyada sezilarliroq, chunki yarim soya yorug'lik manbaining asosiy va aks etayotgan tomonlaridan ancha sust ta'sir etadi. Buyumning xajmli shaklini jozibadorligi va natura qo'yilmasining yaxlitligini to'g'ri anglash uchun , issiq tuslar bilan yonma-yon aralash kontrast kuchida inson ko'zi sovuq rangni ko'radi. Bir rang boshqasiga qo'shimcha bo'lgan rangni his qiladi. Buning natijasida naturadagi sovuq ranglarga issiq ranglar hamisha yo'ldoshdir.

Agar biz buyumning sirtida zarg’aldoq rangni ko’rsak, yonida esa albatta havo rangni sezamiz. Issiq vasov uq tuslar tasvir oghangdorligini oshiradi, naturadagi tabiiy ko’rinishni naomyon etadi. Buyumning katta shaklini modellashtirayotib, mayda bo’laklarni chiza turib, shuni yodda tutish kerakki, katta shaklning ham yoritilgan, ham soyadagi yuzasida joylashgan ko’plab kichik shakkarda aniqlanadigan tusni oshirib yubormaslik kerak. Yorug’likda yoki soyada joylashgan mayda shakl tuslarining yaqinligini ilg’ab olish uchun, ish jarayonida atrof - muhitga bog’liq bo’lmagan buyumlarga e’tibor berish shart emas. Aytib o’tganimizdek, buyumlarni yaxlit ko’rib, doimo ularni o’zaro solishtirib turish zarur. Buyumning och qismini tasvirlay turib, qaysi nuqtada u yorug’ligi va rangining eng quyuqligi va qaerda kuchliroq namoyon bo’lishini, so’ngra esa xajmli shaklning qolgan qismida topilgan tus bilan taqqoslab aniqlash kerak.

Eslatib o’tamiz, ranglarni uch xususiyat bo’yicha taqqoslaymiz: yorug’ligi, rang tusi va to’yinganligi. Agar biror bir rang yorug’ligi bo’yicha to’g’ri topilib, boshqa xususiyatlari aniq bo’lmasa, bu rangni to’g’ri deb bo’lmaydi –



munosabatlar rang tusi va to'yinganligi bo'yicha ham aniqlangan bo'lishi kerak. Buyumlarni solishtirib, o'xshashligini yoki ularning orasidagi farqlarini aniqlash shunday holatda yengillashadiki, agar havo rang buyumni boshqa bir tusi o'zgacharoq buyum bilan solishtirsak. Bunday taqqoslash bizni sinchiklab qarashimizni charxlaydi hamda ulardagi rang tusini aniq ko'rishga ko'mak beradi. Buyumlarni ranggi bo'yicha taqqoslashda yana bir holatni hisobga olish zarur. Ketma-ketlikdagni rang kontrasti tufayli, kulrangning nozik tusi uni nima bilan qiyoslashimizga bog'liq bo'lib, goh issiq, goh sovuq bo'lgan holda tuyuladi. Agar kulrangni qizil rang bilan solishtirsak, u sovuq tusda, havo rang bilan taqqoslasak, issiq tusda ko'rindi. Shu sababli buyumning nozik tusini aniqlashda xolis rangni xolis bilan, issiqni issiq bilan, sovuqni sovuq bilan, och rangni och bilan, to'q rangni to'q bilan o'zaro solishtirish kerak. Tasvirlanayotgan buyumlarni nafaqat asosiy yuqorida qayd etilgan rangning uchta xususiyati bo'yicha, balki tashqi ko'rinishining aniqligi bo'yicha ham taqqoslash zarur. Tasvirlanayotgan buyumlarning chegarasi hamma joyda ham bir xil aniq ko'rinnmaydi. Bir xil joyda buyumning silueti yaxshi ko'rindi, boshqa joyda esa fon bilan birikib ketadi. Buyumdan tushayotgan soyalar chegarasi ham barcha yerda bir xil ko'rinnmaydi. Ish jarayonida doimo munosabatlar bilan fikrlash kerak: matoda tasvirlanayotgan bir necha buyumlarni naturadagi xuddi shu guruh buyumlari bilan qiyoslab borish maqsadga muvofiq. Faraz qilamiz, birinchi ko'rinishdagi buyumlar guruhining ranglari ikkinchi ko'rinishdagi buyumlar ranggiga nisbatan juda ham yorqin va to'q tusdadir. Ularning naturadagi bu farqlarini sezgach, palitarda ranglarni alohida bitta , bitta emas, balki birdaniga bir necha rangni munosabatlarda tanlash zarurdir. Havaskor rassom manzara lavhani tasvirlayotganda old ko'rinishidan boshlashi ma'qul. Agar rang qatlamlarini orqa ko'rinishdan qo'ya boshlasa, uning rang va tus kuchlarini oshirib yuborib, birinchi ko'rinishni bo'rttirib ko'rsatishga bo'yoqlarning kuchi yetmaydi. Matoning to'liq yuzasi bo'yoqlar bilan butkul qoplanib, munosabatlar to'g'ri olinmaguncha haqiqiy jarangdor bo'yoqlarni, yorug'lik kuchini va tasvirlanayotgan buyumlar moddiyligini his qilib bo'lmaydi.

Palitradagi yorqin bo'yoq - hali matodagi yorqin tus emas. Buyumlarning yoritilishi va materialligi munosabtalarning to'g'ri olinishiga bog'liq , aks holda yon tarafdagи tuslar to'g'ri topilmasa, qaysidir bir rangning jarangdorligiga erishib bo'lmaydi. Rangtasvir ishlash jarayonida ranglar munosabatini to'g'ri aniqlash bilan birga, shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, biz faqat oddiy rang dog'lari bilan emas, balki aniq bir shakl ustida ham ish olib borayapmiz. Ranglar munosabatini izlashdan maqsad, to'g'ri topilgan rang tuslari bilan naturani, uning xajmli shaklini to'g'ri topish demakdir. Agar rang buyumning fazoviy joylashuvi, materialligi va aniq shaklini ifoda etmas ekan, u tasvirda o'z ma'nosini yo'qotadi. Och va to'q, rangli va rangsiz bo'yoq surtmalari ma'lum



bir buyum shakliga va ob'ektga tegishli bo'lsagina, materiallik, ranglar uyg'unligi va koloritni yaratadi. Manzaraning fazoviy kengligini masalan, faqat havo perespektivasi tufayli ranglar o'zgarishini ko'rsatib beruvchi rangli dog'lar emas, balki yer yuzasida joylashgan narsalar va ob'ektlar: daraxtlar, qurilishlar,

to'g'ri to'rtburchakli va notekis maydonlarni o'lchamlari va chiziqlar aniqligi ranglarda o'zgarib, manzaraning fazoviy uzoqlashishini yaratadi. Tog'larni, masalan, ikkinchi va olis ko'rinishda umumiy rang dog'larida ifoda etish mumkin emas. Rang bilan ularning relyefini va o'simliklar tuzilishini tasvirlash kerak. Ishning yakunida natyurmort, manzara yoki portretning u yoki bu joylari kerakli yorqinlikni olmay qolgan bo'lishi mumkin yoki aksincha, haddan tashqari tusi va ranggi bo'yicha kuchli, umumiy rang tusidan —ajralib ko'rinishi mumkin. Yoritilgan joylar tusi bo'yicha o'ta keskin bo'lib, qog'oz yoki mato yuzasidan —chiqib ketishi mumkin. Ba'zan soyali joylar sezilarli mayda detallarga ega bo'lib, maydalashib ko'rindi. Bu holatlarning hammasidan ham umumlashtirish masalasi hal etiladi: mayda bo'laklarning keskin chegaralari mayinlashtiriladi, buyumlarning rangdorligi kuchaytiriladi yoki xiralashtiriladi, keskin tuslar ochlashtiriladi yoki to'qlashtiriladi. Umumlashtirish bosqichida naturaga yaxlitligicha qarash, hamma narsani birdaniga ko'rish ya'ni —tikilib qarash kerak. Buyumlar guruhining barchasi tarqoq bo'lib tuyuladi, ammo shu paytda tus munosabatlarini, natura yaxlitligini tezroq tushunish mumkin. Navbatma navbat naturaga ham, etyudga ham yaxlit qarash kerak, shunda qayerda qanday xatoga yo'l qo'yilganligini ilg'ab olish mumkin. Butunligicha, yaxlitligicha ko'ra olish qobiliyati, ishni umumiyyadan xususiyga qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko'rish – rangtasvida ishslash mahoratining assosidir. Faqatgina shu malakaga ega bo'lgan rassom, naturani obrazli ko'rinishini to'g'ri ifoda etishi, undagi asosiy va har bir bo'lakning o'z o'rnini topishini, ishning yakuniy darajasini hamda kompozitsiyaviy markazga bo'ysundirishni samarali bajara oladi. Tasvirdagi qismlar yig'indisi yaxlitga teng emas, chunki yaxlitlik – bu qismlar yig'indisiga birlik, shu qismlarning bir-biriga bo'ysunganligi va jamlanganligi hisoblanadi. Akademik Ye.A.Kibrik tasvirlashning yaxlitligi haqida shunday yozgan:—

**“Yaxlitlik qonuniga bo'ysunmasdan turib, naturadan na qalamda, na rangda tasvirlash mumkin emas. Shakl ham, rang ham o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, faqat yaxlitlik qismi kabi yaxlitlikka nisbatan bo'ladi”**

## Nazorat savollari

1. Akvarel bo'yoqlari qaysi san'at turida ko'p qo'llaniladi?
2. "Tus" deb nimaga aytildi?
3. Suvbo'yoq texnikasida tasvir ishslashda qanday ashyolar, ish qurollari zarur?
4. «kolorit» nima?
5. Qanday mo`yqalam turlari mavjud, akvarel uchun qanday mo`yqalamlar ishlataladi?
6. Rangtasvida yaxlitlik qonuni deb nimaga aytildi?

**2–Mavzu: Yorug'likka qarshi qo'yilgan mavzuli murakkab natyurmort kompozitsiyasi ishslash. "San'at atributlari" (gipsli bosh namunasi bilan)** (Akvarel)

**Mashg'ulot turi:** Naturadan rasm ishslash.

**Tasvirlash vositalari:** Akvarel bo'yog'ining cheklangan ranglari, № 8–№ 14 o'lchamdagagi mo'yqalamlar, torshon qog'ozzi, planshet, bo'yoq uchun palitra, suv uchun idish.

### Reja:

Amaliy ish va uni bajarish bosqichlari:

1. Kompozitsiyani qog'oz yuzasida joylashtirishi o'rghanish, fazoviykka e'tibor berish;
2. Rangda jismlarning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlarini topish;
3. Rang nisbatlarini topish;
4. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash
5. Asl nusxaga o'xshashligini ta'minlash, umumlashtirish, yakunlash.

**Izoh:** tasvir vatmanning yarmida bajariladi. A–2 format.

**Tayanch iboralar:** *Yorug'lik, torshon qog'oz, kompozitsiya, siluet,, konstruktiv tuzilish, perspektiva, obraz, buyum tekisligi, natyurmort qo'yilmasi.*

## Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Qurish, joylashtirish	Shakl, hajm nisbatlarini to'g'ri topish	Soya-yorug' munosabalar ini to'g'ri topish	Tus nisbatlarini topish	Umumlashtir ish, yaxlitlash, yakunlash ishlari	Jami
1	1	1	1	1	5

**Mashg'ulot turi:** Naturadan rasm ishslash.

**Tasvirlash vositalari:** Akvarel bo'yog'ining ikki xil rangi, №8–№14 o'lchamdagи mo'yalamlar, torshon qog'ozi, planshet, bo'yoq uchun politra, suv uchun idish.

Mavzuli murakkab natyurmort ustida ishslashning o'ziga xosligi, ularning kompozitsiyasini mukammalroq hal etishda, har bir buyumning shaklini atroflicha fikr yuritib aniqlashda har bir buyumning sirtini tasvirlab, uning materialini aniq ko'rsata olishda namoyon bo'ladi.

Pastanovkaga kiradigan har bir buyumning shaklini perspektiv qisqarishlari bilan chizib olgach ularning och-to'qlik darajalarini farqlagan holda asosiy soyalar qo'yib chiqiladi.



Алексей Савченко www.tsivin.narod.ru

Yorug'likka qarshi qo'yilgan natyurmort tasvirini ishslash birmuncha murakkabdir. Bunda buyumlarning rangi birmuncha o'zgarib, to'q siluet bo'lib ko'rinadi. Bu qo'yilmani tasvirlashda talabalarning asosiy kamchiligi qo'yilmadagi

buyumlarni qoraytirib yuborishidir. Natyurmort qo'yilmasidagi har bir buyumlarning, gipsli boshning soya qismidagi rang va tus refleks kuchi orqali aniqlanadi. Yorug'lik qanchalik kuchli bo'lsa, ranglar shunchalik to'yingan bo'lib refleksni yanada kuchaytiradi. Boshning shakli yanada yaqqol ko'rindi. Biroq, yorug'lik kuchi susayganda rang to'yinganligi pasayib reflekslar xiralashadi. Odatda bouyumlarning soya qismi intererdagi reflekslar ta'sirida iliq tusli bo'ladi. Boshning yoritilgan qismlaridagi umumiy rang ham o'zgaradi. Bunday yoritilgan qo'yilmani ishlash jarayonida talabalar ko'pincha soya qismidagi reflekslarni kuchaytirib yuborishadi. Talaba unutmasligi kerakki, gipsli boshning soya qismi bilinar-bilinmas reflekslar yordamida shakllanadi. Faqat shundagina modelni to'g'ri va yaxlit ifodalash mumkin. Soyalar bir yo`la narsalarning panasida, yopiq tekislikda, ustida va devorda belgilanadi.

Bu esa tasvirda naturadagi kabi to'q birligiga erishishi va har bir narsaning o'ziga xos shaklini to'laroq ochib berishga imkon beradi. Narsalar shaklini



aniqlashtirib borib, natyurmortdagi nozik farqlarni topishda avval yirik shakllarni, katta qismlarini matodagi asosiy burmalarni tasvirlash, so'ngra esa mayda va chakana tafsilotlarini tasvirlashga o'tish kerak. Bunda chiziqlar albatta narsalarning

shakliga monand yo`nalishda bo`lib, uning shaklini bo`rtirib ko`rsatishi kerak. Shuning uchun tasvirning hammasiga ishlov berishga, uni natura bilan yopishtirib, solishtirib qarash kerak. Bunda chiziqlar albatta narsaning shakliga monand yo`nalishda bo`lib, uning shaklidagi noaniq yerlarini yana ishlash kerak bo`ladi. Unda ton jihatdan kamchiliklarga yo`l qo`yilgan bo`lsa darhol bartaraf etish lozim. Birinchi plandagi narsa uzoqroqda tuyulsa uni yaqinlashtirish aksincha, orqa plandagi narsa juda yaqqol ko`rinib qolgan bo`lsa, uni bir oz xiralashtirish lozim. Xullas, natyurmortning tasviri uning o`zi kabi yaxlit taasurot qoldira olishi zarurdir.

Tabiiy yorug`likda yirik munosabatlar bilan shakl xajmini to`g`ri ishlashni o`rganib bo`lgach, uzoq muddatli seanslarga o`tish mumkin. Unda esa bosh tasviri puxta o`rganilgan holda uning rangli va obrazli xarakterini ifodalashga o`tiladi.

**Mustaqil ish uchun vazifa.** Yorug`likka qarshi qo`yilgan meva va uy-ro`zg`or buyumlaridan sodda natyurmortlar ishslash.

### Nazorat savollari

- 1.Torshon qog`oz xususiyati va u nima uchun ishlatiladi?
2. Kompozitsiya so`zining ma'nosini ayting?
- 3.San`at atributlari (gipsli bosh namunalari) nomini ayting?
- 4.Jismning konstruktiv tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
- 5.Perspektivaning ta'rifini ayting?
- 6.Natyurmort atamasi nimani bildiradi?
- 7.Rangtasvirda qanday vositalar qo`llaniladi?
8. “Siluet” nima?

### 3–Mavzu: Interer ko’rinishini tasvirlash.

**Mashg’ulot turi:** Naturadan rasm ishlash.

**Tasvirlash vositalari:** Akvarel bo’yog’i, № 8–№ 14 o’lchamdagи mo’yqalamlar, torshon qog’ozi, planshet, bo’yoq uchun politra, suv uchun idish.

#### Interer ko’rinishini tasvirlash.

##### Reja:

Amaliy ish va uni bajarish bosqichlari:

1. Kompozitsiyani qog’oz yuzasida joylashtirishi o‘rganish, fazoviykka e’tibor berish;
2. Rangda jismlarning soya va yorug’ joylarini belgilab, tus jihatlarini topish;
3. Rang nisbatlarini topish;
4. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash;
5. Asl nusxaga o’xshashligini ta’minlash, umumlashtirish, yakunlash.

**Izoh:** tasvir vatmanning yarmida bajariladi. A–2 format.

**Tayanch iboralar:** kuzatish moslamasi, perspektiva, interer, asosiy rang, nisbat, munosabat, g’oyaviy markaz, qoralama, eskiz, chiziq, shakl, rang, kolorit, faktura.

#### Baholash mezoni va ko’rsatkichlari

Qurish, joylashtirish	Shakl, hajm nisbatlarini to’g’ri topish	Soya–yorug’ munosabalarini to’g’ri topish	Tus nisbatlarini topish	Umumlashtirish, yaxlitlash, yakunlash ishlari	Jami
1	1	1	1	1	5

Ma'lumki tasviriy san'atni o'rgatish tajribasi, ayniqsa, kompozitsiya masalalarini hal etish jarayonida interer, fazo, atrof-muhit va vaqt faktorlarini

to'g'ri olib berish uning ifodaviyligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ma'lumki, interer ko'pchilik kompozitsiyalarning muhim qismi sifatida foydalilanadi. U ayniqsa, natyurmortlarni ishlashda ko'p qo'llanadi. Keng qamrovli mazmun mohiyatga ega bo'lgan natyurmort kompozitsiya asarlarida va shuningdek o'quv mashqlarida ham xona ichi tasvirlanadi. Unda esa albatta kompozitsyaning barcha qonun-qoidalari va amallariga rioya qilinishi taqozo



Arts.In.UZ

etadi. Bunda uning chiziqli perspektiva qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muhit ko'rinishi realistik tarzda, metodik izchillikdan bilimdonlik bilan aks ettirilishi lozim. Agar kompozitsyaning biror- bir unsuri e'tiborsiz qoldirilsa, unda umum tasviriy jihatlari bo'sh, ta'sirsiz chiqib qolishi mumkin. Masalan, natyurmort kompozitsiyalaridan atrof-muhit, fazo holatlari muhim

hisoblanib, ularni ifodali tasvirlash orqali mavzuni belgilovchi zamonaviylik hamda vaqtni, asar ishlangan paytdagi fasl xususiyatlariga doir aniq, tiniq ko'rsatib berishi mumkin. Mazmuni chuqur va qiziqarli chiqishi natyurmort qo'yilib tasviri etilayotgan xona ichi ya'ni intererning qanday yoritilganligi, undagi buyumlarning qanday joylashganligiga ham bog'liqdir. Chunki ular orqali

kompozitsiya g'oyasini yanada teranroq ochib berish imkoniyati tug'iladi. O'sha har biri o'zicha muhim bo'lgan narsalar orqali vaqt mezonlarini, davr xususiyatlarini ham to'liq badiiy tarzda ifodalash mumkin. Odam qiyofasini intererda aks ettiradigan kompozitsiyalarda ham vaqt, fazoviy holatlar, atrof-muhit tasviri orqali ko'rsatib beriladi. Chunki ular kompozitsiyadagi rangdorlik tus-rang munosabatlarini, ta'sirchanlik va mazmunni belgilovchi komponentlar sifatida yo`zaga chiqadi. Ma'lumki, o'quv mashqlaridan, kompozitsiya chizish jarayonlarida bu muhim omillar aslo unutilmasligi lozim.

Chunki ular kompozitsyaning o'lchamini, tomonlarining rang va to'q-ochlik, demakki, tus munosabatlarini, yaxlitlik va muvozanatlarini belgilab, muallif o'z oldiga qo'ygan g'oya tasvirini yo`zaga chiqarishda yordam beradi. Mazmunning tushunarli, lo'nda, qiziqarli chiqishida xizmat qiladi.

Xona ichini kompozitsyaning bir komponenti sifatida tasvirlash ham oson emas. U ko'pincha tasvir etilayotgan voqelikning yordamchi bir foni vazifasini o'tasada, unga muhim bo'lak sifatida yondoshilishi kerak. Masalan, intererni chiziqli perspektiva holati to'g'ri topilmas ekan kompozitsyaning fazoviy o'lchamlari va ifodaviyligining haqqoniy aks etishi mumkin bo'lmay qoladi. O'z navbatida atrof-muhit ham kompozitsyaning umumiyligi g'oyaviy mazmunini belgilovchi unsurlardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shu narsa ayon bo'ladiki, demak, interer, fazo,



atrof-muhit va vaqt kompozitsiyasining mazmunli chiqishida muhim rol o'ynovchi, o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda tasvirlanadigan zarur kompozitsyaning faktorlari ekan. Shu sababdan ularning tasviriga katta e'tibor bilan yondashish zarur. Intererda aks ettiriladigan har turli kompozitsiyalarni bajarishdan avval albatta ko'plab yordamchi eskizlar, qoralama lavha suratlar ishlanishi kerak. Ulardan foydalangan holda kompozitsiyada xonaning qanday qismi tasvir etilishi topiladi. Perspektiva ko'rinishining qurilishi tahlil etib belgilab olinadi. Bunda albatta rang, fazoviylik holatlari tus, soya-yorug'lik munosabatlari orqali ifodalanadi.

**Mustaqil ish uchun vazifa:** Tasviriy san'atga oid maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish; intererda meva va uy-ro'zg'or buyumlaridan sodda natyurmortlar ishslash;

### **Nazorat savollari**

1. Yarim soya deb nimaga aytildi?
2. Tasviriy san'atda perspektiva tushunchasi?
3. Rangtasvirda intererning ahamiyati?
4. Ranglardagi kontrastlikni qanday tushunasiz?
5. Kompozitsiyadagi o'zaro munosabat ta'rifini aytинг?
6. Rangtasvirda eskizlar nima uchun kerak?
7. Rangtasvirda shakl nimani ifodalaydi?

### **4–Mavzu: Oq fonda har xil rangli mevalardan tuzilgan natyurmort ishslash.**

**Mashg'ulot turi:** Naturadan rasm ishslash.

**Tasvirlash vositalari:** Akvarel bo'yog'i, №8–№14 o'lchamdagи mo'yqalamlar, torshon qog'oz, planshet, bo'yoq uchun politra, suv uchun idish.

### **Ishning bajarilish bosqichlari:**

1. Kompozitsiyani qog'oz yuzasida joylashtirishi o'rganish, fazoviykka e'tibor berish;
2. rangda jismlarning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlarini topish;

3. Rang nisbatlarini topish;
4. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash;
5. Asl nusxaga o'xshashligini ta'minlash, umumlashtirish, yakunlash.

**Izoh:** tasvir vatmanning yarmida bajariladi. A–2 format.

**Tayanch iboralar:** *Palitra, fazoviylik, yaxlitlik, soya–yorug', fazoviy perspektiva, refleks.*


### Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Qurish, joylashtirish	Shakl, hajm nisbatlarini to'g'ri topish	Soya–yorug' munosabalar ini to'g'ri topish	Tus nisbatlarini topish	Umumlashtir ish, yaxlitlash, yakunlash ishlari	Jami
1	1	1	1	1	5

Natyurmort san'ati inson maishiy hayotining zarur buyumlari dunyosini aks ettiради. Natyurmort tuzish – ijodiy ishdir. Unda musavvirning didi va layoqati, kompozisiyani fikrlay olish madaniyati namoyon bo'ladi. Tasodifan terib qo'yilgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort tuzish maqsadiga qarab o'quv va ijodiy bo'lishi mumkin. O'quv natyurmortlari ijodiy natyurmortdan, albatta, farq qiladi. O'quv natyurmorti ma'lum dastur talabini o'rganish uchun bajariladi. Rangtasvir asari buyumlarning barcha xususiyatlari, shakli va rang, qattiq-yumshoqligi, sirtining yaltiroq yoki xiraligiga qarab tasvirlanadi. Haqqoniy tasvirlangan natyurmort asarlaridan mevaning mazasi, gullarning hidi kelib turadi. Bunga erishish uchun rangshunoslik nazariyasini, bo'yoqlarning xususiyatlarini yahshi bilmoq kerak. Tasvir va natura o'rtasida nisbat uyg'unliklarini to'la ifodalay olish talab etiladi.

O'quv qo'yilmalardagi fon (zamin) muhim ahami-yatga ega. U turli rang va och to'qligi bo'yicha, barobar kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narsalarning yarim-soya va soyali tomonlari och fonda sezilarli ko'rinib turadi. Qoramtil fonda narsalar o'zining yorug'lik sifatlarini ko'proq namoyish etadi. Fonning tusi och va to'q narsalar orasida o'rtacha bo'lishi, rang jihatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinmasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, masalan har xil mevalar bilan tuzilgan natyurmortda oq fon tanlanadi, iloji boricha, natyurmortning foni bilan tagligi (stolning gorizontal tekisligi) tabiiy bo'lishi kerak.

Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallik va rangdorlik sifatlarini natura qo‘yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo‘yilmani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqli.



Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o‘tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini sur’at tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Tasvirlovchi narsalar to‘plamiga (natyurmort) ma’lum bir ko‘rish nuqtasidan qaraydi va u ko‘z qarashiga qat’iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o‘zaro bog‘liqligi bilan namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o‘zaro yoritilganligi va bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular oralig‘ida reflekslar, yarim soyalar, soyalar va yorug‘liklar taqsimoti ma’lum bir tartibda bo‘ladi. Mabodo ko‘rish nuqtasi o‘zgartirilsa naturaning o‘zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ko‘rish nuqtasi yorug‘likka qarama-qarshi bo‘lganda tasvirni siluet tarzida ko‘rish mumkin. Natyurmortni tasvirlash jarayonida to‘plamdagi barcha narsalar, ularning o‘zaro joylashuvi, soya-yorug‘ va tus munosabatlarini obrazli ko‘rinishiga bo‘ysundiriladi va idrok qilinadi. Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxlit bir butun ko‘rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi pedagogning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog‘liqdir. Naturaga nisbatan qiziqarli ko‘rish nuqtasini tanlab olgach, qog‘oz varog‘i qanday o‘lchamda bo‘lishligini aniqlash zarur. Qog‘oz varog‘ida ifodalanadigan natyurmort qo‘yilmasini naturadan to‘g‘ri aniqlab tasvirlay olish kerak.

Natyurmort kompozitsiyasini qurilishida dastlab qog‘oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog‘oz o‘lchamiga nisbatan


tasvirning katta-kichikligini aniqlashdan iborat. Har bir natura qo'yilmasi muayyan o'lchamdagи qog'ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma'lum o'lcham tekisligida "tiqilinch" yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog'oz tekisligida aniq ko'rinxaydi.

Tasvirda asosiy e'tiborni o'ziga jalb etuvchi buyum — kompozitsiya markazini, qolganlari esa unga tobe bo'lib hizmat qiladi.

Tasvirda tomoshabinning nazari ana shu markazga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o'lchamdagи qog'oz bo'lagida bo'lajak natura qo'yilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so'ng, asosiy ishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Natyurmort qo'yilmasini tasvirlashda ishni alohida-alohida buyumlardan boshlab so'ngra boshqalariga o'tish aslo mumkin emas. Narsalar guruhini qog'ozga to'g'ri joylashtirishda nisbat, oraliq masofalar, fazoviy joylashuvda



xatolikka yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun narsalar to'plamini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqish zarur. Tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarish o'ta muhim.

Narsalarning o'zaro joylashuvi, istagan qirrasini yo'nalishi naturada osongina aniqlanadi va naturaning yo'naltiruvchi va vertikal (tik), gorizontal (yotiq)

chiziqlari yordamida tasvir qog'ozda yengil quriladi. Uzun qalam yordamida qurilmaning perspektiv burchaklarini, qirra nisbatlarini, stol tekisligida o'zaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun qalamni cho'zilgan qo'lda vertikal, gorizontal yoki burchak ostida ushlab qirralarning perspektiv yo'nalishini tekshirish mumkin.

Rang bilan ishslash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

**Mustaqil ish uchun vazifa:** Mustaqil oq fonda uy-ro'zg'or buyumlarinidan tashkil topgan sodda natyurmortni tuzish va akvarelda turli texnologiyalarda tasvirlashni o'rghanishga oid mashqlar bajarish.

### Nazorat savollari

1. Bir urinishda ishlab tugatiladigan rangtasvir usuli nima?
2. Soya-yorug'lar ko`lamini ayting?
3. Natyurmort qo'yilmasida nimalarga e'tibor berish lozim?
4. Rang kontrastlari deb nimaga aytildi?
5. Rangtasvida palitra nima uchun kerak?
6. Kompozitsiya nima?
7. Natyurmort qo'yilmasida fonning ahamiyati qanday?
8. Qanday ranglar hosila ranglar deb ataladi?
9. Buyum tekisligi deb nimaga aytildi?

### II-Semestr

#### **1-Mavzu: Rangi bir xil, turli tusdagi buyumlardan tuzilgan natyurmort kompozitsiyasini contrast fonda ishslash.**

**Mashg'ulot turi:** Naturadan rasm ishslash.

**Tasvirlash vositalari:** Moy bo'yoq, №8–№14 o'lchamdag'i mo'yalamlar, moybo'yoqda ishslash uchun mato, bo'yoq uchun politra, eritma uchun maxsus idish.

**Ishning bajarilish bosqichlari:**

1. Kompozitsiyani mato yuzasida joylashtirish, fazoviylikka e'tibor berish;
2. Rangda jismalarning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlarini topish;
3. Rang nisbatlarini topish;

4. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash;

5. Asl nusxaga o'xshashligini ta'minlash, umumlashtirish, yakunlash.

**Izoh:** tasvir maxsus romga tortilgan mato yuzasiga (50x70 sm o'lchamda) bajariladi.

**Tayanch iboralar:** *Shaffof, rangtasvir texnikasi, grizayil, muvozanat, ritm, vizual harakat, hissiy sezgi, eksperiment, ko'z qarashi.*

### Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Qurish, joylashtirish	Shakl, hajm nisbatlarini to'g'ri topish	Soya—yorug' munosabalar ini to'g'ri topish	Tus nisbatlarini topish	Umumlashtir ish, yaxlitlash, yakunlash ishlari	Jami
1	1	1	1	1	5

Tus rangtasvirning ajralmas qismi hisoblanib u rang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar o'zlarining dastlabki ishlarida faqat rang bilan ovora bo'lib qo'yilmadagi tus yaxlitligini yoddan chiqaradilar, natijada ish sifati buziladi.

Rangtasvirni puxta o'rganishda ko'pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo'yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat bergenlar. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: «Tusni yorug'lik orqali yetkazishdan ko'ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rang tasvirga o'tishda, yorug'likdagi tusga bo'lgan ko'nikmaga ega bo'lish kerak...». Demak rangtasvirning boshlang'ich kursida grizayil texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz. Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumming materialligi, uning hajmi tus munosabatlari ranglar vositasida hal qilishga o'tiladi. Realistik qalamtasvirning bunday sifatlariga har bir narsalardagi (shula, yorug'lik, yarim soya, soya va x.k.) soya-yorug'lik gradatsiyasi va ularning ranglardagi o'zaro tusli farqlarini to'g'ri hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi Rang jihatidan ba'zi narsalar naturada zich va to'qroq boshqalari esa ochroq

ko'rinati. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to'qroq va zichroq «og'ir» (masalan, chinni ko'zada, cho'yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq «nozik» (gipsli vaza, qog'oz rulon va x.k.) ko'rinati. Bu tusli farqlarni qalamtasvirda ham teng ravishda mutonasiblikda ifodalash kerak.



Bu chog'da narsalar orqasidagi fanni ham hisobga olish zarur. Natura qo'yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och-to'qligi munosabatlarining to'g'ri olinayotganligi kenglikni ko'rsatishga imkon tug'diradi. Tus munosabatlarini eng to'q narsalardan yoki chuqur ichki soyalardan boshlab ko'rsatilishi to'g'riroqdir. Har bir narsalarning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalarning o'zaro och joylarini, soyani-soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan taqqoslash zarur. qandaydir to'q idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to'qroqdir. Mevalardagi yorug'lik eng yorug' joyiga qaraganda to'qroq bo'lisi mumkin. Tasvirda va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy taqqoslash orqali ular orasidagi farqlarni kamayishiga erishish zarur. Eng to'q narsalar yoki uning soyasi – bu qora baxmalda va ko'mir rangida emasligini, esda tutish kerak. Qora buyumlar va ularning soyalarini ancha

yumshoqroq lekin juda ham to'q qora tusda ishslash kerak emas. Hattoki qora baxmalni tasvirlashda ham qalam yoki qora bo'yoqni bor kuchidan foydalanish noto'g'ri, aks holda qog'ozda yoki matoda huddi qora teshik paydo bo'ladi. Shuningdek, naturadagi juda oq narsalarni toza oq bo'yoqlar bilan tasvirlashning iloji yo'q chunki, u oq bo'yoqqa nisbatan ancha to'qroq bo'ladi.

Ishning birinchi bosqichida – asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy obektlarning yorug'-soya munosabatlari: foning och-to'qligi, narsalarning sirtidagi och-to'qligiga va ularning o'zaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo qo'yilmadagi narsalarning umumiyligi tusi bir sidra qoplanadi. Agar umumiyligi munosabatlarni noto'g'ri olsak qalamtasvirning aniqligi, keyingi alohida narsalarning hajmli shakllaridagi yorug'-soya ham, tasvir aniqligi va haqqoniyligini, materiallik va kenglikni ko'rsata olmaymiz. Ishni soyadan yorug'likka qarab yuritish kerak, buning ustiga soya joylariga imkon boricha bo'yoq qatlamini yupqa va nozik berish, yorug'likni esa ularga nisbatan quyuq bo'yoqda ancha to'qroq qatlamli, va aniq surtmalar bilan qoplash zarur.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo'yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo'yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo'yoq surtmalarini shakl yo'nalishi bo'yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo'lgan narsaga turli tasodifiy yo'nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko'rsatish mushkuldir. Naturadan tasvirlayotib narsalarning munosabatlarini nafaqat tus kuchi bo'yicha balki uning aniqligini ham, narsalar sirtlarining kontrastli chegaralarini ham kuzatishimiz kerak. har bir narsaning ko'rinish turgan tashqi ko'rinishi o'zining ko'lamida turlicha: qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug'lik kuchi bo'yicha fonga nisbatan yaqinroq bo'lishi mumkin. Shu narsaning o'ng tomonidagi chegarasi tus jihatidan fon bilan deyarli qo'shilib, uning yuqori qirrasi fonda yaqqol ajralib turadi. Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to'g'ri ko'rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini soya-yorug' bilan ham puxta ishslash kerak. Tekisliklar bilan chegaralangan buyumlarning yorug'-soyalarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish

izchilligining xususiyati shundan iboratki,- har bir tekislik boshqa tekislik tusidan farqlanib o'zining malum tusiga ega bo'ladi. Bunday narsalarning hajmi - hamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir. Yorug'likka qaratilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan, yorqinlik ravshan



yoritilgan bo'ladi. Shakllarni turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta qismlarga ham kichik shakllarga ham tegishlidir.

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo'ladi. Agarda bir qatorga bir xil narsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsalarning mayda bo'laklari va materiallik fakturasi ancha aniqroq ko'rindi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo'qolib xiralasha boradi. Uzoqdagi

obektlar siluetli va tekis (yassi) bo'lib ko'rinishadi. Old ko'rinishdagi buyumlarning soya-yorug' qismlari olisdagidan ravshan va aniqroq o'qiladi..

### Nazorat savollari

1. Moybo'yoqda qanday vositalar qo'llaniladi?
2. Moybo'yoqda ishlash texnikasi qanday?
3. Tus deb nimaga aytildi?
4. Rangtasvirda muvozanat deb nimaga aytildi?
5. Kontrast deb nimaga aytildi?
6. Lessirovka so`zi nimani anglatadi?
7. Tasviriy san'atda simmetriya nima?
8. Fon ushin ishlatiladigan gazlama matolar qanday ataladi?

### 2–Mavzu: Murakkab bo'limgan natyurmort kompozitsivasi moybo'yoqda ishlash

**Mashg'ulot turi:** Naturadan rasm ishlash.

**Tasvirlash vositalari:** Moy bo'yoq, №8–№14 o'lchamdagি mo'yqalamlar, moybo'yoqda ishlash uchun mato, bo'yoq uchun politra, eritma uchun maxsus idish.

#### Ishning bajarilish bosqichlari:

1. Kompozitsiyani mato yuzasida joylashtirish, fazoviylikka e'tibor berish;
2. Rangda jismlarning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlarini topish;
3. Rang nisbatlarini topish;
4. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash;
5. Asl nusxaga o'xshashligini ta'minlash, umumlashtirish, yakunlash.

**Izoh:** tasvir maxsus romga tortilgan mato yuzasiga (50x70 sm o'lchamda) bajariladi.

**Tayanch iboralar:** kompozitsiya tekisligi, Moybo'yoq, siluet, sovuq ranglar, iliq ranglar, qarama-qarshi ranglar.

### Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Qurish, joylashtirish	Shakl, hajm nisbatlarini to'g'ri topish	Soya-yorug' munosabalar ini to'g'ri topish	Tus nisbatlarini topish	Umumlashtir ish, yaxlitlash, yakunlash ishlari	Jami
1	1	1	1	1	5

Moybo'yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o'rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg'ulotdir. Ammo bu mashg'ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, u moybo'yoq rangtasvir texnologiyasi bilan ham bog'liq. Chunki moybo'yoq bilan ishlash ma'lum tayyorlarlikni talab etadi. Ularga bo'yoqlarni tanlash, ish uchun sath (mato)ni tortib tayyorlash, uni qoplama (grunt) bilan yopish, mo'yqalamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. Moybo'yoqda tasvirlar ishlashni o'rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o'zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moybo'yoqli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim tomonlari akvarel texnikasiga o'xshash. Chunki bunda ham avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo'yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo'yoqda ishlash uchun esa chizmatasvir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi moybo'yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo'yqalama ishlanishi mumkinligidandir. Moybo'yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qo'shiladi. Shunisi ham borki oq rang qo'shilgach bo'yoqning erkinligi ma'lum darajada kamayadi. Buni o'quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish joiz. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq muddatli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. Shunda bo'lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko'rib o'rghanish asosiy ishda uni qo'llash mumkin bo'ladi.



Moybo'yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashylardan foydalанилди. Улар romga tortib tayyorlab, qoplama surtib olingan (gruntlangan) mato, moybo'yoqlarning kerakli xillari, bo'yoq taxta (politra), mo'yqalamlarning turlichalikdagi xillari, mastixin va eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigan omillardan biridir desak xato bo'lmaydi. Uning qoplamasini (grunti) ikki xil tarzda tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo'lib u quyidagichadir. 5 foizli yelim (jelatin, baliq yoki duradgorlik yelimi) aralashmasi shunga teng hajmdagi bo'rga qo'shiladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilgandan so'ng qoplama


bo'yoq qatlami tayyorlab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya'ni - maxsus oqartirilgan rangtasvir yog'i quruq oq bo'yoq kukunidan qo'shib tayyorlangan aralashma bo'ladi. Yog' va kukunning nisbati shunday bo'lish kerakki u tayyor idishga solib chiqariladigan moybo'yoqdan suyuq bo'lmasin. Shunda uni bemalol mato sathiga mastixin bilan tekis qilib surtib chiqish mumkin bo'ladi. 1-2 xaftha quritilgach G'adir-budir erlari qumqog'oz bilan yaxshilab tekislanadi va skipidar aralashtirilgan moyli qoplama yassi, katta mo'yqalam (fleyts) bilan tekis qilib bo'yab chiqiladi. Bunday usulda tayyorlanadigan mato 2-3 oy mobaynida quritiladi. U saqlanadigan joy iliq va quruq bo'lishi shart.

«Yelimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi. Suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unga 15 gr. glitserin qo'shiladi. U matoga 1-2 marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog'oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so'ng ikkinchisi surtiladi. Shundan so'ng elim aralashmasi bo'r varoq bo'yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning tarkibi quyuq bo'lib qolgudek bo'lsa, o'sha yelim aralashmasidan qo'shiladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig'ida ko'rishi uchun ma'lum vaqt bo'lishi shart.

Qoplamalar yana ma'lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko'proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo'l keladi. Moybo'yoqda o'quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalinish talab etiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko'p rang xillaridan bilibilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi.

Tabiatda yetta asosiy rang (bo'yoq) borligi ma'lum. Ular qizil, noranji, sariq, yashil, havo rang, ko'k, binafsha ranglardir. Bo'yoq aralashtiriladigan taxtada (politrada) bo'lishi juda zarur rang xillari esa qizil, sariq, ko'k bo'yoqdir. Chunki ular boshqa qolgan asosiy rang-tuslar vositasida xosil bo'lmaydi. Bularning aralashmasidan qolgan juda ko'p ranglarni chiqarish, xosil qilish mumkin. Ulardan xatto qora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Faqat qaysi rangni bir-biriga qancha miqdorda aralashtirishni bilish kifoya. Buning uchun esa albatta tajriba va o'quv bo'lishi kerak. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki tabiatda

absolyut oq va absolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir rang tovlanishida bo'ladi. Masalan qoraning jigarrangga, ko'kka, yashilga moyil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tuslarga moyilligi ham



tabiiy. Bunday rang va tuslarning hamda ularning to'q-ochliklarini topib tasvirlash uchun moybo'yoqda ishlash texnikasi juda qulaydir. Shu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo'yoq turlaridan ajralib turadi. Moybo'yoq texnikasida rangtasvirlar ishlashda mo'yqalamlarning qanday turlari va o'lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish ko'p foyda keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katta ishlarni bajarishda yapaloq va dag'al mo'yqalamlarni qo'llash ish sifatini, ta'sirchanligini ta'minlaydi. Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shib ishlatiladi. Ular moyli, moyi kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Moylirog'i bo'yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo'lib, u bilan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin quriydi. Shu sababli uzoq muddatda bajariladigan tasvirlarni ishlashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarga ba'zan lak ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday qilinganda ishning bo'yoq

qatlami tezroq quriydi va bo'yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, moybo'yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (politra)ning yuzasida bo'yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo'yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratib, shu bilan birga to'q-ochligiga qarab ajratib joylashtirilishi mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo'ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatish imkoniyati qulay bo'ladi. Moybo'yoqda tasvirlar ishlashning ko'p o'rganilishi kerak bo'lgan tomonlari bor. Ularning barchasi ko'p mashq qilish orqali o'rganib olish imkonini beradi. Tajriba nazariy va amaliy tomondan muntazam mashq qilish natijasida oshadi. Bunda maxsus adabiyotlarni mutoala qilish ham zo'r vositadir.

**Mustaqil ish uchun vazifa.** Kontrast rangli jismlardan tashkil topgan mavzuli murakkab natyurmort ranglavhasini moybo'yoqda ishlash.

### Nazorat savollari

1. Bo`yoqlar qanday moddalardan olinadi?
2. Tez bajarilgan, katta bo'limgan o'lchamdagisi san'ati asari nima deyiladi?
3. Narsaning shaklining yaxlit chetki surati nima deb ataladi?
4. Ranglavha nima?
5. Qaysi ranglar "sovuq ranglar" turkumiga kiradi?
6. Kontrast ranglar deb nimaga aytildi?
7. Qaysi ranglar "iliq ranglar" turkumiga kiradi?
8. Akvarel bo'yog'i qurigandan keyin necha foiz yorqinligini yo'qotadi.
9. Muljallangan ishga daslabki ijodiy izlanish?

### **3–Mavzu: Iliq tuslanishga ega bo'lgan kontrast rangli buyumlardan tuzilgan natyurmortni cheklangan ranglarda ishlash. (moybo'yoq)**

**Mashg'ulot turi:** Naturadan rasm ishlash.

**Tasvirlash vositalari:** Moy bo'yoq, №8–№14 o'lchamdagি mo'yqalamlar, moybo'yoqda ishlash uchun mato, bo'yoq uchun politra, eritma uchun maxsus idish.

**Ishning bajarilish bosqichlari:**

1. Kompozitsiyani mato yuzasida joylashtirish, fazoviylikka e'tibor berish;
2. Rangda jismlarning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlarini topish;
3. Rang nisbatlarini topish;
4. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash;
5. Asl nusxaga o'xshashligini ta'minlash, umumlashtirish, yakunlash.

**Izoh:** tasvir maxsus romga tortilgan mato yuzasiga (50x70 sm o'lchamda) bajariladi.

**Tayanch iboralar:** *ufq chizig'i, muvozanat, uy ro'zg'or buyumlari, g'oyaviy markaz, qoralama, eskiz, chiziq, shakl, rang, kolorit, faktura.*

#### **Baholash mezoni va ko'rsatkichlari**

Qurish, joylashtirish	Shakl, hajm nisbatlarini to'g'ri topish	Soya–yorug' munosabalar ini to'g'ri topish	Tus nisbatlarini topish	Umumlashtir ish, yaxlitlash, yakunlash ishlari	Jami
1	1	1	1	1	5

Rangtasvir ishlashda uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir desak xato bo'lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lislumumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kulrang, qoramtil, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k



ranglarning aralashmasidan hosil bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tish mumkin. Xuddi shunday, binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak, o'quv mashg'ulotida

rangtasvirni ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'-soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.


Kompozitsiyadagi to'qlik, rang, faktura yoki masshtabni o'zgartirib qarama qarshilik hosil qilish orqali holat yoki harakatni ifodalash mumkin. Juda och jism kuchli soya tushib turgan to'q jism oldiga joylashtirilsa kontrastlik darajasi oshadi. Rang yoki to'qlik darajasidan tashqari rangdor yuzada kulrang, sovuq tusli yuzada iliq ranglar berib ham kontrastlikni kuchaytirsa bo'ladi. Yana bo'yoq surtmasini har xil qalinlikda qo'yish, mo'yqalamni turlicha ishlatish yo'li bilan ham fakturadagi kontrastlikni yaratish mumkin.

Contrast creates a moment of detail or a dynamic that you can establish in a composition through a change of value, hue, texture, or scale. Contrast of value is heightened when an extremely light value is placed next to a very dark area, as with strong cast shadows. Besides a strong change in color or value, you can also express contrast through a neutral color juxtaposed with an intense color, saturated color next to a tint, or a cooler color next to a warmer one. Describing the changes in surface textures through brush handling (or via thickness of the paint itself) lets you achieve a contrast in texture.<sup>1</sup>

Bu faktorlardan o'z joyida qo'llash kartina va undagi obrazga nisbatan tomashabinning qiziqishini oshiradi. Rassomning hissiy sezgisi orqali kompozitsyaning asosiy qonun-qoidalariga amal qilgan holda bu unsurlar va qoidalarni qanday tashkil etishni aniqlashiga yordam beradi. Kompozitsiyadagi bu qoidalarni qo'llashdagi ikkillanish yangi ijodiy eksperimentlar qilishga xalaqit beradi.

---

<sup>1</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 47



**Birinchi bosqich:** kompozitsiyani joylashtirib, uning qalamda umumiy ko'rinishini chizib olamiz. Mashq uchun romkaga tortilgan mato va iliq bo'yoqlarni tanladik.



**Ikkinci bosqich:** natyurmortdagi mevalar, idishlar hamda fondagi asosiy tuslarni aniqlab, katta yuzalarga ishlov beriladi. Ulardagi ranglar sekin–asta to'qlashtirib boriladi. Kartinadagi boshqa bo'laklarining rangini fon rangi yordamida tayyorlanib borilsa bir–biriga uyg'unlashgan, iliq tusdagi kompozitsiya hosil bo'ladi.



**Uchinchi bosqich:** kartinaning kompozitsion qurilishi. Mevalarning boy rangi hamda grafin va ryumkalarni keng rang surtmalarida berib boring. Shu'la tushib turgan joylar uchun oq qog'ozda joy tashlab ketishni unutmang. Tezda qarama-qarshi ranglar, yorqin tus va oq dog'lar ko'rinishlari sizni qo'shimcha ishlov berish, soya chetlarini yumshatish, yuvish ishlarini bajarishga undaydi.



**To'rtinchi bosqich:** umumlashtirish yakunlash ishlari. Mevalar, savatning rangdorligiga ishlov berib ranglarni yaxlitlashtirib boring. Alovida bo'laklarning qirralari yonidagi jismlardan ajratish uchun to'qlashtiring, kerakli joyini yumshatib aniqlashtirib boring. Ishni tugatishdan oldin uni ko'zdan panaroq joyga qo'ying. Ozroq muddat o'tgandan so'ng qaraganingizda undagi kamchiliklarni ko'ra boshlaysiz va uni to'g'rilash mumkin bo'ladi.



### Nazorat savollari

1. Molbertni nimaga ishlatiladi?
2. Iliq ranglar deb qanday ranglarga aytildi?
3. Rangtasvirda muvozanat deb nimaga aytildi?
4. Asar yaratish maqsadida boshqacha usulni qo'llash, yangi yo`nalishni sinab ko`rish nima deb ataladi?
5. Lessirovka so`zi nimani anglatadi?
6. Qanday ranglar hosila ranglar deb ataladi?
7. Tasviriy san'atda simmetriya nima?
8. Fon ushin ishlatiladigan gazlama matolar qanday ataladi?

#### **4–Mavzu: Sovuq tuslanishga ega bo'lgan natyurmort kompozitsivasi ishlash.**

**Mashg'ulot turi:** Naturadan rasm ishslash.

**Tasvirlash vositalari:** Moy bo'yoq, №8–№14 o'lchamdagি mo'yqalamlar, moybo'yoqda ishslash uchun mato, bo'yoq uchun politra, eritma uchun maxsus idish.

**Ishning bajarilish bosqichlari:**

1. Kompozitsiyani mato yuzasida joylashtirish, fazoviylikka e'tibor berish;
2. Rangda jismlarning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlarini topish;
3. Rang nisbatlarini topish;
4. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash;
5. Asl nusxaga o'xshashligini ta'minlash, umumlashtirish, yakunlash.

**Izoh:** tasvir maxsus romga tortilgan mato yuzasiga (50x70 sm o'lchamda) bajariladi.

**Tayanch iboralar:** *Palitra, ufq chizig'i, muvozanat, uy-ro'zg'or buyumlari, faktura, ijodiy eksperiment, guash texnikasi.*

#### **Baholash mezoni va ko'rsatkichlari**

Qurish, joylashtirish	Shakl, hajm nisbatlarini to'g'ri topish	Soya–yorug' munosabalar ini to'g'ri topish	Tus nisbatlarini topish	Umumlashtir ish, yaxlitlash, yakunlash ishlari	Jami
1	1	1	1	1	5

#### **Sovuq tuslanishga ega bo'lgan natyurmort kompozitsiyasini ishlash.**

Moybo'yoqda rangtasvir ishslash juda murakkab hisoblanadi. Har qanday yangi bo'lgan mashg'ulotga qo'l urilar ekan, maqsadga yetish uchun inson har xil ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar oqibatida bu mashg'ulotni keyingi safarga surish yoki umuman to'xtatishga harakat qiladi. Moybo'yoqda ishslashni o'rganish uchun

talabadan texnika, ko'nikma, ko'p mehnat va sabr-qanoat bilan tinmay mashqlar qilishni talab qiladi.

Rangda tasvirlashdan avval kompozitsiya markazini aniqlab olish zarur. Buning uchun tasvirning qaysi qismi eng muhim sanaladi? Tomashabin diqqatini kartinaning qaysi qismiga qaratish zarur? Qiziqarli joy qayerda? kabi savollar bilan o'zingizga murojaat qiling. Ishni boshlashning boshlang'ich bosqichida bu muammolar yechimini topish kompozitsyaning asosiy g'oyaviy markazini aniqlab olishga yordam beradi. Kartinangizning qaysi qismiga ko'proq e'tibor berilishiga qarab ufq chizig'ini baland yoki past darajada olish bilan xolstda kompozitsiya joylashishini taqsimlaysiz. Umuman olganda ufq chizig'i xolstni teng ikkiga bo'luvchi markazda bo'lmasligiga harakat qiling, bunda kompozitsiyangiz turg'un, harakatsiz (tepada ham pastda ham kattaroq, diqqatni jalb qiladigan element mavjud bo'lmay, kompozitsiyadagi muvozanat yo'qoladi) holda bo'lib qoladi.

Dividing the canvas into proportions by placing the horizon line high or low determines which area of your painting will dominate. In general, you should try to avoid placing the horizon in the center, cutting the canvas equally in half, as it tends to create a static composition (unless one side—top or bottom—of the painting is weighted with a stronger element).<sup>2</sup>

Keyingi amaliy mashg'ulotimiz Moybo'yoqda sovuq tuslanishga ega ranglardan tashkil topgan natyurmort ishlash mashqini ko'rib chiqamiz. Mavzumizda uy-ro'zg'or buyumlardan tuzilgan natyurmort tasvirini rangdor fonda bajarish mashqini bajaramiz. Bu mashg'ulotda biz Moybo'yoqning cheklanmagan ranglaridan foydalangan holda rangtasvir bajaramiz.

Kompozitsyaning ma'lum bo'lagini bir urinishda tugallashni rejalahtirgan bo'lsangiz ham rangtasvirning boshlang'ich bosqichlarida kompozitsyaning yaxlit ko'rinishini ko'zdan qochirmaslik juda muhim. Ba'zi bo'yoq ranglari kompozitsyaning ko'plab joylarida bo'lganda kichik bo'laklarda emas balki katta yuzalar yaxlitligi va ranglar uyg'unligini nazorat qilib borish yengillashadi.

---

<sup>2</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015.s-57



Qog'oz yuzasida kompozisiya aniqlab olingandan so'ng eng yorug' va eng soya joylari aniq chegarasi belgilab chiqiladi. Bu bosqichlarning vazifasi, narsaning eng yorqin joyi, soya, yarim soya, refleks, buyumning tushuvchi soyalari aniq chiziqlar vositasida belgilab olishdan iborat.

Natyurmortda rang munosabatlarini aniqlash. Narsaning asl rang tuslarini toza-yorqin birligi qatlami bo'yaladi.

Yuzada har bir buyum shakli mayda bo'laklarsiz umumiylar yaxlit xajmi bo'yab boriladi.

Naturadan rangtasvir ishslash jarayonining o'z qonuniyatları mavjud bo'lib, bu ishni tartib bilan olib borish talab etiladi. Ketma-ketlik tartibini anglagan xolda bajarilgan ish maxsuli muhim ahamiyatga egadir. Ishni nimadan boshlash, uning orasida qanday talablarga javob berish va qay o'rinda tugallash kerakligini yaxshi bilmoq zarur. Rangtasvir bajarishni zarur bo'lgan quyidagi talablar maxsulidir. 1) naturada mujassam umumiylar yorug'-soya, rang-tuslar va mushtarak ranglardan yorug'-soyani, rang-tusli uyg'unliklar mavjud bo'lgan katta bo'laklarni aniqlash; 2) yorug'-soyali, rang-tusli uyg'unliklar katta bo'lagida, yorug'-soyalar va rang yo'nalishlari, ayrim narsa sirtiga ranglar Bilan muttasil ishlov berish; 3) umumlashtirish, butun tasvirning yaxlitligiga erishish, kompozisiya markazini ajratib ko'rsatish. Qo'yilgan talablar mohiyatini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Rangtasvirning to'laqonli ifoda etilganligini yorug'-soya, rang-tus kontrastlari, naturaning asosiy rang bo'laklariga o'zaro uyg'unliklari bilan belgilanadi. Bu jarayon natyurmortda – fon bilan stol yuzasi, qo'yilgan majmua buyumlari orasida, manzarada esa osmon bilan yer yuzi va daryo suvining satxi, shuningdek oldindagi plan, o'rtalari va oxirgi planlar orasida sodir bo'ladi. Chizgi sirtlarda ham aynan shu talablar bajarilishini yahshi bilamiz: birinchi galda buyum konstruksiyasining asosiy

mutanosibliklarini (proporsiya) ifodalovchi umumiy kata shakl chizib olinadi. Chizayotgan kishi naturani umumiy va yaxlit tasavvur qilar ekan, bu vazifalardan chetlab o‘ta olmaydi.

Ranglarni palitrada bir marotaba topib olib uni faqat ochartirib yoki to‘qartirib butun narsani tasvirlash mumkin emas, balki narsa-buyum yuzasining har bir qismi uchun maxsus rang tuslarini qidirib topish kerak bo‘ladi. Asl ranglar (buyumlarning o‘z rangi) yarim soyalarning asosiy yoritgichlar va aks yorug‘lar ta’sirida juda kam o‘zgarishlari bois, ular ichida ko‘zga yaqqol ko‘rinib turadi.

Xajmli narsalar va natura majmularining rang-barangligini yanada kengroq anglash uchun shuni yodda tutmoq joizki, yondosh iliq ranglar kontrastlari ta’sirida ko‘zga sovuq rang-tuslar ko‘rinadi. Bir rang qo‘srimcha ikkinchi rangni ifodalab turadi. Buning natijasida naturada mavjud sovuq ranglarga doimo iliq ranglar hamroh bo‘lib yuradi. Agar jism sirtida olov rangni ko‘rayotgan bo‘lsak, uning yonida, albatta



havorangni ham uchratamiz.

Iliq va sovuq rang-tuslar uyg‘unliklarida bajarilgan tasvir har bir jismning jarangdorligini oshirib, naturaning tabiiy ko‘rinishini ifodalab beradi.

Tasvirlanayotgan narsalar, buyumlarni bir-biriga o‘xshashligi yoki farqlarini taqqoslab kuzatish ishni bir muncha yengillashtiradi. Masalan, havorangli narsani boshqa bir tus jihatdan boshqacha bo‘lgan havorangli narsaga solishtirib ko‘rsak, bizning sezgi-idrokimiz yanada jiddiyasha boradi va ularning rang tuslarini, farqini aniqroq belgilay olamiz.

Narsa – buyumlarni rang jihatdan taqqoslar ekanmiz, yana bir vaziyatni e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Mavjud rang kontrastlari ta’sirida kulrang tuslar iliq yoki sovuq bo‘lib ko‘rinadi. Kulrang iliq ranglar orasida sovuq, sovuq ranglar orasida iliq tusda namoyon bo‘ladi. Shu bois narsa-buyumlar tuslarini aniqlashda rangsizlarni rangsizlar bilan, iliq ranglarni, iliq ranglar bilan, sovuq ranglarni sovuq ranglar bilan, ochlarni ochlar, to‘qlarni to‘qlar bilan taqqoslash yaxshi samaralar beradi.

**Mustaqil ish uchun vazifa.** Ko’k tusli ranglardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini moybo’yoqda bajarish.

### **Nazorat savollari**

1. Rangtasvida ob'ektga qaytib aks etib turgan rang nima deb ataladi?
2. Ranglar gammasi deb nimaga aytildi?
3. Natyurmort so`zining ma'nosi?
4. Sovuq rang deb qanday ranglarga aytildi?
5. Xromatik rang deb qanday ranglarga aytildi?
6. Axromatik rang deb qanday ranglarga aytildi?
7. Kompozitsiyaning g’oyaviy markazi deb nimaga aytildi?
8. Ufq chizig’i deganda nimani tushunasiz?
9. Bir nechta ranlarning o’zaro uyg‘unligi qanday ataladi?

## ATAMALAR

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
<b>Shtrixlash</b>	<b>Hatching</b>	<b>Shtrixovka</b>	Tasvirda ishlataladigan chiziqlar birdamligi yoki bir-biri ustiga yotkizilgan nuqtalar yoki chizmaga tus berishga ishlataladigan chiziqlar yig‘indisi.
<b>Sous</b>	<b>Sauce</b>	<b>Sous</b>	Rasm chizishga mo‘ljallangan yumshoq material bo‘lib, tarkibi loy, bo‘r, yelim va rangli kukunlardan iborat. Ular qora, och qoramtil va oq ranglarda bo‘ladi.
<b>Kapitel</b>	<b>Capital</b>	<b>Kapit��l</b>	( <a href="#">lotincha caput</a> ) - ustun yoki, plyastrni bog‘lovchi qism. Kapitel ustundan bo‘rtib chiqib, ustunga o‘zgacha ko‘rk beradi.
<b>Sangina</b>	<b>Sangin</b>	<b>Sangina</b>	( <a href="#">fr. sanguine</a> , <a href="#">lotincha- sanguis</a> ) — rasm chizishga mo‘ljallangan qalamcha shaklidagi yumshoq material bo‘lib, tarkibi <a href="#">kaolina</a> va <a href="#">temir oksidlaridan</a> iborat.
<b>Tushuvchi soya</b>	<b>Drop shadow</b>	<b>Padayищауа ten</b>	Yorug‘lik manbai bilan bir xil yo‘nalishda joylashgan boshqa buyumning nur manbaidan yashirin tomoni maydoni.
<b>Qarash nuqtasi</b>	<b>Observation point</b>	<b>Tochka obzora</b>	Rasm chizuvchining joylashgan o‘rnini yoki kuzatish nuqtasi
<b>Qarash burchagi</b>	<b>Vision angle</b>	<b>Ugol obzora</b>	Jismning chekka nuqtalariga qarab kuzatuvchidan chiqayotgan nurlar yo‘nalishi.

<b>O‘z soyasi</b>	<b>Own shadow</b>	<b>Sobstvennay a ten</b>	Predmetning bir tarafi yorug‘likda, boshqa tomoni soyada joylashganidagi paydo bo‘ladigan soya.
<b>Yorug‘ -soya</b>	<b>Sheckered light and shade</b>	<b>Svetoten</b>	Biron-bir buyumning soya-yorug‘ini aniqlashdagi grafik munosabat.
<b>Ekorshe</b>	<b>Yekorshe</b>	<b>Ekorshe</b>	(frans. Écorché – “shilip olingan” écorce – “jild”) – o‘quv jumla, odamning muskullari yuzaga chiqarilgan terisiz qomati
<b>Tuslash</b>	<b>Stump</b>	<b>Rastushovka</b>	Tasvirning aniq bir qismini soya-yorug‘ini ko‘rsatib berish uchun qo‘llaniladigan uslub
<b>Portret</b>	<b>Portrait</b>	<b>Portret</b>	(frans. Portrait - tasvir) – tasviriy san’at janri, bir va undan ortiq odam tasviri
<b>Natyurmort</b>	<b>Still life</b>	<b>Natyurmort</b>	(fransuzchadan «natyurmort» so‘zi “o‘lik narsa” degan ma’noni anglatadi). Bu tasviriy san’at janridir. Bu janr asarlarida asosan insonni o‘rap turgan buyumlar aksini topadi – ko‘zalar, vazalar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar va boshqa maishiy buyamlar shular jumlasidandir. <b>Ijodiy natyurmort</b> – bu rassomning insonni o‘rap turgan buyumlar aksini o‘z zamoni va makonidagidek qilip tasvirlashi hisoblanadi.
<b>Homaki nusxa</b>	<b>Yetude</b>	<b>Etyud</b>	(fransuzcha «etude» - o‘rganish) – hayotdan ishlangan ish. Ko‘pincha etyud mustaqil ma’no kasb etadi. Ba’zida u chizuvchining professional malakasini oshirishi bilan bir qatorda olamni chuqurroq va haqqoniy o‘rganishga xizmat qiladi. Shu bilan birga etyud ishlanadigan asarga ham yordamchi, ham tayyorlovchi material bo‘lib ham xizmat qiladi. Etyud yordamida rassom asar g‘oyasini aniqlaydi va mayda qismlariga ishlov

			beradi.
<b>Grizayl</b>	<b>Grisaille</b>	<b>Grizayl</b>	(fransuzchadan <i>Grisaille</i> – <i>gris so ‘zidan</i> «kul rang» ma’nosini anglatadi) – bu rangtasvir turi hisoblanib, bir yoki ikki rangda ishlanadigan, ko‘pincha jigarrang yoki kul ranglarda tasvirlanadi hamda bu arxitektura va haykaltaroshlik elementlarini qog‘ozga tushirish texnikasi hisoblanadi. Grizaylda buyumning faqat tusi hisobga olinib, rangini esa ahamiyati yo‘q.
<b>Abris</b>	<b>Outline</b>	<b>Abris</b>	Hajmning chiziqli shakli
<b>Rakurs</b>	<b>Foreshortening</b>	<b>Rakurs</b>	Buyum shaklining perspektiv qisqarishi vositasida uning doimiy ko‘rinishi o‘zgarishi; buyumning tepe yoki pastdan qaralgandagi to‘satdan berilgan qisqartmalari.
<b>Nisbatlar</b>	<b>Proportions</b>	<b>Proporsii</b>	Buyumlar qismlarining bir-biriga va asosiga bo‘lgan o‘lochamlar munosabati
<b>Yarimsoya</b>	<b>Penumbra</b>	<b>Poluten</b>	Hajmli buyumning yuza qismidagi soya-yorug‘ning, soya va nurning o‘rtasidagi rang birligi
<b>Hajm</b>	<b>Volume</b>	<b>Ob’em</b>	Tasvirning tekislikdagi uch o‘lchamli shakli.
<b>Buyum formasi</b>	<b>Shape object</b>	<b>Forma predmeta</b>	Buyum, obekt hamda chiziqlar joylashuvi chegaralarining nisbiy holati
<b>Kompozitsiya (tasviriy san’atda)</b>	<b>Composition (visual arts)</b>	<b>Kompozitsiya (izobrazite-lnom iskuutve)</b>	Bu badiiy shaklni mujassamlashtiradigan, asarga birdamlik va yaxlitlik beruvchi, rassom g‘oyasi elementlarini bir-biriga jipslashtiruvchi narsa.

<b>Qoralama</b>	<b>Sketch</b>	<b>Eskiz</b>	Badiiy asar g‘oyasini belgilovchi dastlabki chizma.
<b>Peyzaj</b>	<b>Paysage</b>	<b>Peyzaj</b>	( <a href="#">fr.</a> <i>Paysage</i> , pays dan — o‘lka, atrof) – tasviriy san’at janri (hamda bu janrning alohida asarlari) bo‘lib, tasvirning asosiy buyumi u yoki bu darajada inson tomonidan o‘zgartirilgan tabiatdir.
<b>Perspektiva</b>	<b>Perspective</b>	<b>Perspektiva</b>	( <a href="#">fr.</a> <i>perspective</i> , <a href="#">lat.</a> <i>perspicere</i> — orqali ko‘rish) – fazoviy ob’ektlarning biron- bir tekislikdagi zoxiriy qisqartirilishiga muvofiq ularning shakli va soya-yorug‘ligi o‘zgarishini ifoda etuvchi tasvir texnikasi.
<b>Panorama</b>	<b>Panorama</b>	<b>Panorama</b>	Aylana podramnikda ishlanadigan tasmasimon asar.
<b>Mato</b>	<b>Sanvas</b>	<b>Xolst</b>	Rangtasvirda – maxsus ishlov berilgandan so‘ng moy bo‘yoq yordamida ustiga ishlanadigan qalin zig‘ir yoki paxta mato.
<b>Akvarel</b>	<b>Watercolor</b>	<b>Akvarel</b>	( <a href="#">fr.</a> <i>Aquarelle</i> — suvli; <a href="#">ital.</a> <i>acquarello</i> ) – rangtasvir ashyosi bo‘lib, maxsus suv bo‘yoqlaridan foydalanuvchi, suvda erigan holatida yupqa shaffof suspenziya hosil qilish orqali tasvirga yengillik, qulaylik va nozik rang o‘tish ta’sirini yaratib beradi.
<b>Guash</b>	<b>Gouache</b>	<b>Guash</b>	( <a href="#">fr.</a> <i>Gouache</i> , <a href="#">ital.</a> <i>guazzo</i> suv bo‘yog‘i, shovullash ma’nolarini anglatadi) – akvarelga qaraganda qalinqoq va xira bo‘lib, suvda eriydigan yelimli bo‘yoqlar turiga kiradi.

<b>Rangtasvir</b>	<b>Painting</b>	<b>Jivopis</b>	Tasviriy san'at turi bo'lib, kuzatuvchining ko'rib turgan yoki hayoliy voqelikni qalın yoki egiluvchan yuzaga bo'yoqlar yordamida tasvir tushiriladigan tushunchadir.
<b>Blik</b>	<b>Hotspot</b>	<b>Blik</b>	Tasvirlanayotgan narsadagi eng yorug' shu'la, qism. Ayniqsa hajmli narsalarning bo'rtirib chiqqan qismlarida shu'la yaqqol ko'rindi.
<b>Badiylik</b>	<b>Artistic</b>	<b>Xudojestven ныу</b>	San'at asarlarining mezoni, o'lchovi.
<b>Interer</b>	<b>Interior</b>	<b>Interer</b>	Bino ichkarisining ko'rinishi bir burchagi, qismi. Interer tasviriy san'atning janri bo'lib binoning ichki ko'rinishlari tasvirlanadi.
<b>Kolorit</b>	<b>Coloring</b>	<b>Kolorit</b>	Badiy asar mazmunini tushunarli bo'lishida ranglar nisbatidan foydalanish, badiy asarlardagi ranglarning umumiy tusi, tuzilishi.
<b>Refleks</b>	<b>Reflection</b>	<b>Refleks</b>	narsaning shaxsiy va tushuvchi soyasidagi shu'lesi, u tevarak atrofdagi narsalarni ta'natijasida sodir bo'ladi.
<b>Fon</b>	<b>Background</b>	<b>Fon</b>	fon, zamin, tag; (ko'm-ko'k osmon fonida, rangli mato fonida) suratlarda eng oxirigi orqa plan rangini bildiruvchi ibora.

<b>Koloristika</b>	<b>Colouristic</b>	<b>Koloristika</b>	rang haqidagi fan bo‘lib, ranglar tabiat, asosiy, tarkibiy  (tashkil etuvchi) va qo‘sishimcha ranglar, ranglarning asosiy xarakteristikalari, rang kontrastlari, ranglar aralashuvi, kolorit, ranglar  uyg‘unligi, ranglar tili va ranglar madaniyati haqidagi bilimlarni o‘z ichiga  oladi. Ranglar dunyosi qonunlari ranglar bilan do‘stlashish yoki do‘stlashmaslikni aniqlab beradi.
<b>Chuqurlik</b>	<b>Depth</b>	<b>Glubina</b>	ranglar tonalligining yorqin yoki xiralik darajasi.
<b>Yorqinlik</b>	<b>Light Coloured</b>	<b>Svetlyy</b>	bu yarqirayotgan (yoki nur sochayotgan) jismning xarakteristikasi bo‘lib, qandaydir yo‘nalishdagi yorug‘lik kuchining yarqirayotgan sirtning shu yo‘nalishga perpendikulyar bo‘lgan tekislikka  tushayotgan proeksiyasining (tasvirining yoki aksining) maydoni nisbatiga teng.

## ILOVALAR.






















[anna-ra-studio.ru](http://anna-ra-studio.ru)



[art-katalog.com](http://art-katalog.com)
















## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson–Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 664
2. S. Abdirasilov, N. Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir: Toshkent – “O’zbekiston” – 2006/ 136 bet.
3. R. Xalilov Akvarel Izdatelstvo “Navruz”. T – 2013

### **2.Qo’shimcha adabiyotlar**

1. Aggy Boshoff. Oil-painting Workshop. First American Edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York, New York,
2. Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England. 2003/s-136
3. Paramon Edisionis, «Curso Completo de Dibujo y Pintura Artistica». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s–127
4. Tolipov N., Abdirasilov S. , Oripova N. Rangtasvir (1–qism). Toshkent., 2002. TDPU
5. Frontz , Lesl i e. The watercolor course you’ve always wanted : guide to lessons for beginners and experienced artists / All rights reserved. Published in the United States by Watson–Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. Copyright © 2015 s. 69–76.
6. Abdirasilov S., Tolipov N. “Rangtasvir” O’quv qo’llanma, Toshkent , 2005. "Bilim"
7. Sultanov X. “Rangtasvir” (grizaylda ishlash). Metodik qo’llanma. T.–2014.

8. Sultanov X. “Rangtasvir” (Akvarelda ishlash texnikasi). O‘quv qo‘llanma. T.– 2019.
9. Abdullaev S. A. “Datgoxli rangtasvirda kompozitsiya muammolari”, O‘quv qo‘llanma. T.: TGII, 1996. – 75 b.
10. Xasanova N.S. Stranisy istorii Xudojestvennogo obrazovaniya Uzbekistana.
11. Hudayberganov R. A. “Tasviriy san’atda rang”, O‘quv qo‘llanma. TDSI O‘q. Bosmaxonasi 2004. – 79 b.
12. R.A.Xudayberganov “Rangshunoslik asoslari”, O‘quv qo‘llanma. T.: “G‘.G‘ulom” 2006.

### **Elektron ta’lim resurslari**

1. <http://cspi.uz/uz>
2. <http://lib.cspi.uz/>
3. <http://widget.ziyonet.uz>
4. <http://natlib.uz/>